



XALQ DEPUTATLARI UCHKO‘PRIK TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2022 - yil 7 - iyun

VI-59-109-11-162-K/22

Uchko‘prik tuman hokimligi

Uchko‘prik tumanidagi ayrim geografik obyektlarning nomlarini qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirib, davlat reestriga kiritish hamda davlat reestriga kiritilgan ayrim geografik obyektlarning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risida

Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunining 16-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2021-yil 31-avgust kunidagi 08-04716-sonli xatiga asosan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Uchko‘prik tumani Kengashi sessiyasi

QAROR QILADI:

1.Uchko‘prik tuman hokimining tumandagi ayrim geografik obyektlari nomlarini o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirib, davlat reestriga kiritish hamda davlat reestridagi ayrim geografik obyektlarning nomlarini o‘zgartirish taklifi ma’qullansin.

2.Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilib, davlat reestriga kiritilayotgan hamda davlat reestridagi ayrim o‘zgartirilayotgan geografik obyektlarning nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda geografik obyektlarning ro‘yxatdan o‘tkazilgan nomlaridan foydalanishi belgilansin.

4.Tuman hokimligi matbuot kotibi A.Ermatov mazkur Kengash qarorini tuman hokimligi “Yangi Farg‘ona” gazetasida shuningdek, rasmiy internet-kanallar va

ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish tavsiya etilsin.

5.Mazkur Kengash qaroridan Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga yuborilsin.

6.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi G‘.Abdullayev zimmasiga yuklansin.

7.Mazkur Kengash qarori rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiritiladi.

**Xalq deputatlari Uchko‘prik
tumani Kengashining navbatdagi
ellik to‘qqizinchi sessiyasi raisi**



Z. S. Uljayeva

Xalq deputatlari Uchko'prik tuman
Kengashining
2022 yil 7 iyundagi
VI-59-109-11-162-K/22-son qaroriga
1-ilova

Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlari talablariga muvofiq o'zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirilib, davlat reestriga kiritilayotgan hamda davlat reestridagi ayrim o'zgartirilayotgan geografik obyektlarning nomlari

№	Geografik obyekt turi	Joylashgan o'rni	Geografik obyekt nomi	Ekspert komissiyasining xulosasi	Izoh
1.	Mahalla	Uchko'prik tumani	Chorboq	Chorbog' -geografik obyektlarning o'zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtiriladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.	
2.	Mahalla	Uchko'prik tumani	Yangibog'	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.	Buyrak nomini- Yangibog' nomiga o'zgartiriladi.
3.	Mahalla	Uchko'prik tumani	G'oz G'ijdon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.	
4.	Mahalla	Uchko'prik tumani	Qumariq	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.	Qumariqobod nomini-Qumariq nomiga o'zgartiriladi.
5.	Mahalla	Uchko'prik tumani	Oqsuv	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.	
6.	Mahalla	Uchko'prik tumani	Bog'ibo'ston	Bog' -u bo'ston- geografik obyektlarning o'zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtiriladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.	
7.	Mahalla	Uchko'prik tumani	Qurbonqashqar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.	